

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK FAKUL'TETI**

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

REFERAT

MAVZU : IQTISODIY TARAQQIYOT VA ISHLAB CHIQRISH

Ilmiy rahbar : dots.Zoyirov Z.X.

**Bajardi : Bekishova N.
3- kurs talabasi**

Navoiy -2010 y.

MUNDARIJA

1. Kirish

1. Ehtiyoj va uning turlari. Iqtisodiy resurslar.
2. Ishlab chiqarish omillari.
3. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.
4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.
5. Xulosa
6. Adabiyotlar ruyxati

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi va u tomon shahdam qadam tashlamoqda. Mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda yangi davrni ochdi. Bu davrning maqsadi sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotiga asoslanuvchi demokratik, huquqiy va adolatli jamiyat qurishdir. Islohotlar xalqimizning ongi va ruhiyatida ham yangicha dunyoqarashni shakllantirmoqda. Ayniqsa, yoshlarimiz orasida yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini idrok etish, ishlash va yashashga intilish qaror topmoqda. Boqimandalik kayfiyatining o'rnini ishchanlik, ishbilarmonlik ruhiyati egallamoqda.

Ular orasida iqtisodiy bilimlarga qiziqish kuchaymoqda. Maqsadimiz yoshlarni malakali mutaxassis egasi sifatida iqtisodiyotning qonun - qoidalari va sir asrorlarini chuqur bilishga o'rgatishdir. Iqtisodiyot nazariyasi fani fundamental fan sifatida iqtisodiy hayotning mazmun mohiyatini, uni boshqarishning qonunlarini va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

Ushbu ma'ruzalar matnini tuzishda O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va «Ta'lim to'grisida»gi qonuni asos qilib olindi. SHuningdek, biz bozor iqtisodiyotiga kirib kelayotganimizni, bu sharoitda yashashimiz, faoliyat ko'rsatishimiz, xilma-xil munosabatlarda bo'lishimizni hisobga olib, bozor iqtisodiyoti muammolarini, uning qonun-qoidalari, tushunchalarini, ularning hayotimizda qay darajada, qay shaklda amal qilayotganini yoritishga harakat qildik.

Mazkur ma'ruzalar matnida iqtisodiy jarayonlarni yuzaki ko'rinib turgan tomonlariga emas, balki ularning ichki mohiyati, ziddiyatlari va bog'lanishlariga, sabab va oqibatlariga alohida e'tibor berildi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti, unda amal qiluvchi qonunlar, tushunchalar, tamoyillar talabalarga soddaroq qilib, faktlar, misollar, jadval va grafiklar asosida yoritishga harakat qilindi.

Ma'ruzalar matnida o'qitishning yangi pedagogik texnologiyasi xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzu yuzasidan asosiy tayanch iboralar, takrorlash va munozara uchun savollar berilgan.

Ma'ruza matnlarining tuzilishi, mazmuni, muammoni bayon qilish tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan fikr va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz va keyingi ijodiy faoliyatimizda hisobga olamiz.

MAVZU : IQTISODIY TARAQQIYOT VA ISHLAB CHIQRISH

Asosiy savollar :

1. Ehtiyoj va uning turlari. Iqtisodiy resurslar.
2. Ishlab chiqarish omillari.
3. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.
4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.

Tayanch iboralar:

Ishchi kuchi. Mehnat qurollari. Mehnat predmetlari. Mehnat resurslari. Kapital. Tadbirkorlik qobiliyati. Ishlab chiqarish jarayoni. Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish. Milliy mahsulot. Zaruriy va qo`shimcha mahsulot.

1.Ehtiyoj va uning turlari. Iqtisodiy resurslar.

Jamiyatning tuzilishi qanday bo`lishidan kat'i nazar uning a'zolari o`z ehtiyojlarini qondirishlari shart, chunki hayot kechirish ehtiyojlarning qondirilishini talab etadi.

Hayotiy ehtiyojlarning turlari ko`p. Ular iqtisodiy, sotsial, madaniy, siyosiy, ma'naviy va hatto sof fiziologik ehtiyojlardan iboratdir. Bularning orasida eng ustuvor ahamiyatga ega bo`lgani sotsial-iqtisodiy ehtiyojdir.

Sotsial - iqtisodiy ehtiyojlar-kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma'lum iqtisodiy mavqega ega bo`lishi uchun iste'mol etilishi zarur bo`lgan mahsulotlar va xizmatlar majmuidir. Bu faqat tirikchilik ehtiyoji emas, balki insonning shaxs sifatida kamol topish zarurati hamdir. Uning jismoniy ehtiyojlardan farqi shuki, mehnat vositasida va tabiat ishtirokida qondiriladi, ya'ni u ishlab chiqarish faoliyatini talab qiladi. Ehtiyoj avvalam bor yakka tartibda bo`ladi, chunki har bir odamning xususiyatiga qarab ehtiyoj farqlanadi.

Shunday ehtiyojlar borki, ular yakka bo`lsada, birgalikda qondirilishi mumkin. Bunday vaqtda guruhiiy ehtiyojlar paydo bo`ladi. Bu esa ma'lum guruhga birlashgan kishilarning umumiy ehtiyojidir. Bunga misol qilib oilaviy ehtiyoj, mehnat jamoasi, va siyosiy uyushmalarning ehtiyojlarini keltirishimiz mumkin.

Umumjamiyat ehtiyoji ham borki, u birinchidan, barcha turdagi yakka va guruhiiy ehtiyojlarning majmuidan iborat bo`lsa, ikkinchidan, jamiyatni yaxlit organizm sifatida yashab turishi uchun zarur ehtiyojdir. Masalan, tabiiy resurslarni avaylash, mudofaa qilish, iqtisodiy zahiralarni hosil qilish, jamiyatni boshqarib turish va boshqalar.

Jamiyatdagi ehtiyojlar o`zining turidan qat'i nazar, ularning mavjud bo`lishi, qondirilishi va o`lishi bir kancha omillarga bog`liq bo`ladi, ya'ni :

- jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida erishilgan darajaga;
- jamiyatning sotsial- iqtisodiy tuzumiga ;
- hayot kechirishning tabiiy-jug`rofiy sharoitiga ;
- tarixiy - milliy an'analar va odatlar bilan bog`lanib ketishiga.

Agar iqtisodiyot qoloq bo`lsa ehtiyojlar doirasi tor bo`ladi, aksincha, iqtisod yuksak bo`lsa, ehtiyoj keng va xilma xil bo`ladi.

Jamiyatning ehtiyoji turli ijtimoiy toifa va guruhlarga mansub kishilar ehtiyojining yaxlitligidir. Shu sababdan, u jamiyatning ichki tuzumiga bog`liq. Agar jamiyat mulkdor va mulksizlarga, boy va kambag`allarga ajralgan bo`lsa yoki jamiyatda ijtimoiy tenglik bo`lib, u chuqur tabaqalashmasa, uning asosini o`rtacha mulkdorlar sinfi tashkil etsa, shunga qarab ehtiyojlar har xil bo`ladi. Demak, inson ehtiyoji abadiy. Inson bor ekan, uning ehtiyoji mavjud. Ehtiyojlar xilma-xilligi boisi insonning ehtiyojlari boshqa bir insonning ehtiyojlariga o`xshamaydi.

Ammo ehtiyojda bir qator yirik belgilar borki, ularga qarab ehtiyojlarni guruhlarga bo`lish mumkin. Bunga ehtiyojning xarakteri, uning nimaga qaratilishi asos qilib olinadi. Shu jihatdan qaralganda sotsial-iqtisodiy ehtiyojlar uch qismga bo`linadi.

1. moddiy ehtiyojlar;

2. sotsial-ma'naviy ehtiyojlar ;
3. mehnat ehtiyoji.

Moddiy ehtiyojlar azaliy, ular inson paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Ular tabiiy ehtiyojlardir. Moddiy ehtiyojlar eng zarur va hayotiy bo'lib, oziq - ovqat, kiyim - kechak, turar - joy, transport, aloqa, gigiena ehtiyojlaridan iboratdir. Ularning qondirilishi yashashning birlamchi shartidir.

Sotsial-ma'naviy ehtiyojlar asosan xizmatlardan masalan, o'qituvchi, vrach, san'at arbobi xizmatlaridan iborat bo'lib, ular ma'lum faoliyat shakliga ega, ularning yaqqol moddiy ko'rinishi yo'q.

Mehnat ehtiyojining mavjudligi faqat mehnatsiz nozu-ne'matlar yaratib bo'lmashligida emas, balki mehnatsiz inson shaxsi kamol topa olmasligidadir. Mehnat ehtiyoji insonni o'zida mujassamlashgan moddiy shaklda bo'lmaydi, u ishlashga bo'lgan ishtiyokda ifoda etiladi.

Ehtiyojlarning uzluksiz o'zgarib turishi har qanday jamiyatga xosdir, ya'ni ehtiyojlar cheksizdir. Ehtiyojlarning cheksizligi ularning to'xtovsiz yangilanib borishidan iboratdir.. Ehtiyojning yuksalish qonuni borki, u umumiyqisodiy qonunlar jumlasiga kiradi va jamiyatning ichki tuzilishidan qat'i nazar insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida amal qiladi. Bu qonunga ko'ra jamiyat a'zolarining, butun aholining ehtiyojlari uzluksiz yuksalib boradi, ehtiyoj miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib turadi, eski ehtiyojlar o'rniga yangisi keladi, ehtiyojlarning rivojlanishi murakkab tarzda yuz beradi.

Ehtiyojlar yuksalishining to'rt jihati bor.

1.Ehtiyoj kengayib miqdoran o'sib boradi, ya'ni muayyan ehtiyoj saqlangan holda uning ortib borishi. Masalan: gazlamaga ehtiyoj boshqa ehtiyoj bilan o'rin almashmaydi, ammo uning miqdori oshadi.

2. Mutlaqo yangi ehtiyojlar paydo bo'lib, eskilarini surib qo'yadi, ehtiyojlarning ichki tartib strukturasi o'zgaradi. Masalan: televidenie va videoapparat paydo bo'lishi bilan uyda xohlagan tomoshani ko'rish ehtiyoji paydo bo'lib, teatr yoki kinoga borish ehtiyoji qisqaradi.

3.Muayyan ehtiyojlar guruhi doirasida turli ehtiyojlar nisbati o'zgaradi. Bunda ehtiyoj umumiy tarzda saqlanadi, lekin uning aniq ko'rinishlari va shakllari o'zgaradi. Masalan: umumiy transport ehtiyoji saqlangan holda, transport aniq turlariga ehtiyoj o'zgaradi.

4.Bir ehtiyojning ikkinchisi bilan almashtirilishi. Bunday almashuv o'rinbosar ehtiyojlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi va bunday ehtiyojlar yuksak rivojlangan iqtisodiyotga xosdir. Masalan: shakar, qand, konfet, tort, navvot shirinlikka ehtiyojni qondiradi, ammo bir-birining o'rnini bosishi ularning foydaliligi darajasidan kelib chiqadi.

Ko'rinish turibdiki ehtiyojlarning yuksalishi muqarrar ekan, lekin asosiy muammo ehtiyojlarni qondirishdir. Buning birdan-bir vositasi ishlab chiqarishdir. Ehtiyoj yuksalar ekan uni qondirish vositalari ham rivojlanadi. Gap shundaki, ehtiyojlar cheksiz o'zgargani holda uni ta'minlash uchun kerak bo'lgan ishlab chiqarish resurslar cheklangan bo'ladi.Bu resurslar tabiiy resurslar, mehnat resurslari, pul resurslari, texnika va texnologiya resurslaridir. Buni g'arbda iqtisodchilar resurslarning kamyoblighi deb atashadi. Ehtiyoj va resurslarning nomutanosiblighi, birining cheksizligi va ikkinchisining kamyoblighi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni talab qiladi.

Resurslar deganda faqat pulni tushunmaslik kerak. Resurslar birinchidan, moddiy shaklga ega bo'lib, yer-suv, yer osti va yer usti boyliklari, asbob-uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshoatlar va boshqalardan, ikkinchidan, inson resurslari yoki mehnat resurslaridan, aniqrog'i kishilarni mehnat qilib ishlab chiqara olish qobiliyatidan. Uchinchidan, moliyaviy resurslar: Valyuta birligi va qimmatbaho qog'ozlardan, to'rtinchidan tabiiy resurslar ya'ni ishlatilsa o'rnini to'ldirish mumkin yoki mumkin bo'lmagan tabiiy boyliklardan iborat.

Er kurrasi va qa'ridagi tabiiy boyliklar ekin maydoni, o'rmonlar, qazilma boyliklar, umuman o'simlik va hayvonot dunyosi miqdoran cheklangan. Masalan Markaziy Osiyodagi sug'orma dehqonchilik Amudaryo va Sirdaryoning suv zahirasi bilan cheklangan. Aholining o'sish sur'atlari pasaygan sharoitda, aholi qariydi, uning tarkibida ishga layoqatli kishilar salmog'i qisqaradi.

To'xtovsiz yuksalib boradigan ehtiyojni qondirish uchun kamyob resurslar oqilona ishlatilishi shart. Shu sababli hatto ibtidoiy jamiyatdagi kishilar yerni chirindilar va kul bilan o'g'itlab, hosildorlikni oshirishga intilganlar. Har doim cheklangan resurslarni tejamli ishlatish cheksiz ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib kelgan.

Yuksalayotgan ehtiyojning uni qondirish vositasi bilan aloqasi ikki yoqlama bo'ladi:

1.Ehtiyojning miqdoran ortib borishi resurs birligidan miqdoran ortib borishi resurs birligidan ko'proq iste'mol buyumlari olishni talab qiladi.

2.Ehtiyoj tarkibining yangilanishi resurs birligidan ko'p turdagi mahsulot olishni talab qiladi. Masalan: 1 tonna metall dan 10 xil emas, 25 xil uy-ro'zg'or buyumlari olinadi. Ehtiyojlar tez o'zgargani sababli, muayyan resurslar sharoitida ularning hammasini birdan qondirib bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat muqobil mahsulotlardan qaysi birini ishlab chiqarishni tanlab oladi. Resurslar cheklanganligidan bir mahsulotni ko'paytirish ikkinchisini kamaytiradi, chunki qo'shimcha mahsulot qo'shimcha resurs talab qiladi.

Demak, chegaralangan resurslar doirasida hamma ehtiyojlarni bir vaqtning o'zida bir yo'la qondirib bo'lmaganidan ishlab chiqarish imkoniga qarab, u yoki bu ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasini tanlab olish kerak bo'ladi. Resurslar sarfining birligidan olingan natija ko'paysa, ehtiyoj yaxshi qondiriladi. Resurslarning tejallishi ular sarfining yaratilgan mahsulot va xizmatlar birligiga nisbatan qisqarishi demakdir.

2. Ishlab chiqarishning omillari.

Moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish, xizmatlar ko'rsatish inson hayoti, uning yashashi va kamol topishi uchun asosdir. Shuning uchun ishlab chiqarishni to'xtovsiz olib borish va rivojlantirish har doim eng muhim iqtisodiy qonuniyat va zaruriyatdir. Insoniyat iste'mol qilmasdan tura olmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham tura olmaydi.

Har bir jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi uchun, eng avvalo uning ro'y berishi uchun zarur bo'lgan, unda qatnashadigan omillar mavjud bo'lmog'i lozim. Bu omillar uchta: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlaridir.

Ishchi kuchi- insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisidir.

Mehnat qurollari- inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalardir.

Mehnat predmetlari- bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir.

Mehnat vositalari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi.

Iqtisodiyotga oid eski darsliklarda ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillar tan olinadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga oid ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, yer-suv, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi.

Kapital deganda o'z egalari daromad keltiradigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'larini, ularning natural ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz.

Tadbirkor deb, iqtisodiy resurslar ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo`shilishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo`rqmaydigan dovyurak kishilarga aytiladi; bu xislatlar esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.

3. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.

Ishlab chiqarish jarayonida biz yuqorida sanab o`tgan omillarning hammasi qatnashadi, ular bir-birini to`ldiradi va bir-biriga ta'sir qiladi. Barcha omillar doimo rivojlanib borish xarakteriga ega.

Ishlab chiqarish jarayoni- bu kishilarning iste'moli uchun zarur bo`lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir. Bu faoliyat ayriboshlash, taqsimot va iste'mol sohalarida ro`y beradigan munosabatlarning xususiyatlarini va yo`nalishini belgilab beradi.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir. Ana shu jarayonda kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan munosabatda bo`ladilar. Ayni mehnat jarayonida kishilar bir-birlari bilan munosabatda ham bo`ladilar. Bu munosabatlarning xarakterlarini, shakllarini va xususiyatlarini o`rganish va ishlab chiqarishni ongli tashkil etish iqtisodiyotning bosh masalasini (iqtisodiy resurslar cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi) hal qilishning birdan bir yo`lidir.

Mehnat jarayonida mehnat vositalari bilan bir qatorda insonning o`zi ham kamol topadi, mehnat mahorati ortadi. Ishlab chiqarish jarayoni umuminsoniy kategoriyalar jumlasiga kiradi. Shuning uchun bu jarayon uzoq tarixga ega.

Ishlab chiqarishning eng yirik sohaları sanoat, qishloq xo`jaligi, transport va aloqa, qurilish, savdo, tayyorlov idoralari, moddiy - texnik ta'minot, kommunal va uy-joy xo`jaliklari, turli xil xizmat ko`rsatish sohaları va boshqalardan iborat. Ma'lumki ishlab chiqarish tizimi ehtiyojlar tizimi bilan bevosita bog`liq. Ehtiyojlar turi qancha ko`p bo`lsa shunga binoan ishlab chiqarishning tarmoq va sohaları ham kengayib boradi. Ularni o`rganish oson bo`lish uchun ishlab chiqarish ikkita katta sohaga : moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishlarga bo`linadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida zaruriy moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi.

Nomoddiy sohalarida esa turli xil ma'naviy ne'matlar yaratiladi va xizmatlar ko`rsatiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayoni tovar ishlab chiqarish jarayonidir. Mahsulotning iste'mol xossasi qanchalik muhim bo`lsa, mehnat sarflarini hisobga olish ham shunchalik muhimdir.

4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.

Ishlab chiqarish jarayonida turli omillarning birgalikda ishlatilishi natijasida mahsulot, ya'ni tovar va xizmatlar vujudga keladi. Ma'lumki ishlab chiqarish, o`zaro bir-biri bilan aloqador, o`zaro bog`langan individual ishlab chiqarishlardan tashkil topgan. Ana shu individual ishlab chiqarishlar yig`indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda, turli omillarning harakati natijasida juda ko`p turdagi tovarlar va xizmatlar massasidan iborat bo`lgan milliy mahsulot vujudga keladi.

Ilgari mamlakat bo`yicha ishlab chiqarishda vujudga keltirilgan mahsulotlar yig`indisi **yalpi ijtimoiy mahsulot** deb atalar edi. Yalpi ijtimoiy mahsulotda yil mobaynida yaratilgan moddiy ne'matlar yig`indisi hisobga olinar edi, unda xizmat ko`rsatish sohalarida vujudga keltirilgan ma'naviy ne'matlar va xizmatlar hisobga olinmas edi. Lekin bir ishlab chiqarish sohasidan chiqqan xom ashyo, materiallar, yonilg'i va energiyalarning qiymati boshqa sohalarida ishlatilib, bir necha bor takror-takror hisobga olinib, mahsulotning hajmi sun'iy ravishda oshirib ko`rsatilar edi, iste'molga borib tushadigan tayyor mahsulot esa undan bir necha barobar kam bo`lar edi.

Mana shu takror hisoblashlarga barham berish uchun hozir milliy hisob tizimiga o`tilib, endi mamlakatda vujudga keltirilgan mahsulotlar, ya'ni tovarlar va xizmatlar yig`indisi yalpi milliy mahsulot (YaMM) deb atala boshlandi. Yalpi milliy mahsulot deb ma'lum vaqt davomida masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko`rsatilgan xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati tushuniladi. Milliy mahsulot moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohalarining yillik mehnat faoliyatining umumiy samarasi bo`lib hisoblanadi. Ichki milliy mahsulot (IMM) ham xuddi shu mazmunda tushuniladi.

YaMM va IMM o`rtasidagi farq shundaki, YaMM ga mamlakatda va undan tashqaridagi korxonalarimizda vujudga keltirilgan, qo`shma korxonalarda hissamizga (mamlakatimiz hissasiga) to`g`ri keladigan mahsulotlar kiradi. Boshqa mamlakatlar yoki fuqarolar tomonidan bizning mamlakatimiz hududida qurilgan korxonalar mahsuloti, qo`shma korxonalardagi mahsulotda ularning hissasi hisobga olinmaydi.

IMM da mamlakat hududida ishlab chiqarilgan hamma mahsulot va xizmatlar (boshqa mamlakatlar korxonalari, qo`shma korxonalarda yaratilgan hamma tovar va xizmatlar qo`shilib) hisobga olinadi.

Hozirgi paytda O`zbekistonda ko`proq ichki milliy mahsulot hisobga olinmoqda, shuning uchun biz endi ichki milliy mahsulot to`g`risida gap yuritamiz.

Birinchidan, mulkdorlar hamda ishchilar o`zlariga kerak bo`lgan iste'mol buyumlarini qaerdan oladilar?

Ikkinchidan, ishlab chiqarishni takror olib borish va kengaytirish uchun ular ishlab chiqarish vositalarini qaerdan oladilar?

Uchinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotning qaysi qismi mulkdor, tadbirkor va davlatning ehtiyojlarini qondira oladi?, degan savollar tug`iladi. Bu masalani hal etish uchun ichki milliy mahsulotning tarkibiy qismlarini bilish va tahlil qilish lozim. Chunki IMM ning har bir tarkibiy qismi ishlab chiqarishning muhim samarasi bo`lib hisoblanadi. Jami ijtimoiy mahsulot bilan yalpi va ichki milliy mahsulot o`rtasidagi farqni aniq tushunish uchun quyidagi misolni keltiramiz.

Ishlab chiqarilgan milliy mahsulotning tuzilishi. (misoldagi raqamlar shartli olingan).

Sotib olingan xom ashyo yonilg`i va materiallar	Qo`shilgan qiymat					Ichki milliy mahsulot	Jami ijtimoiy mahsulot
	Amortizatsiya		Ish haqi	To`langan soliqlar va to`lovlar (bahoga qo`yiladigan qismi)	foyda		
	Iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari (S)		Zaruriy mahsulot (V)	Qo`shimcha mahsulot (t)			
Paxta ishlab chiqarish	40	30	30	20	20	100	140
Paxtani qayta ishlash	140	40	50	25	30	145	285
To`qimachi-lik	285	50	60	30	40	180	465
Tikuvchilik	465	45	50	35	30	160	625
Jami	930	165	190	110	120	585	1515
	S=	1095	V=190	T= 230		585	1515

Bundan ko`rinib turibdiki, jami ijtimoiy mahsulot 1515 birlikni tashkil etadi, ichki milliy mahsulot esa 585 birlikni tashkil etadi. Lekin bu yerda shuni aytish lozimki, mamlakat miqyosida takror hisobga yo`l qo`ymaslik uchun yalpi va ichki milliy mahsulotni hisoblashda sotib olingan xom ashyo, yonilg`i va materiallar hisobga olinmaydi, faqat qo`shilgan qiymat hisobga olinadi, uning yig`indisi esa yalpi yoki ichki milliy mahsulot deb yuritiladi.

Yalpi va ichki milliy mahsulotlar haqida batafsil makroiqtisodiyot bo`limida tushuncha beramiz. Hozir esa milliy mahsulot va uning tarkibiga qisqacha to`xtalmoqchimiz.

Milliy mahsulot asosan ikki tarkibda, ya'ni natural buyumlashgan holda va qiymat tarkibida hisobga olinadi.

Ularning o`zgarishi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi dinamikasini aks ettiradi. Natural shakli bo`yicha milliy mahsulot ikki qismdan:

- ishlab chiqarish vositalari.
- iste'mol tovarlaridan tashkil topadi.

Qiymat jihatidan milliy mahsulot uch qismdan iborat bo`ladi, ya'ni:

- 1) Ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining, ya'ni ular qiymatining mahsulotga o`tgan qismi (S);
- 2) Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning zaruriy mehnat bilan ishlab chiqarilgan zaruriy mahsulot qiymati (V);
- 3) Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar va jamiyat uchun qilingan qo`shimcha mehnat bilan ishlab chiqarilgan qo`shimcha mahsulot qiymati (t) dan iboratdir.

Boshqacha aytganda :

$MM = MS + SMM$ dan iborat bu yerda: MS-moddiy sarflar.

SMM-sof milliy mahsulot.



SMM yangidan yaratilgan qiymat bo`lib, u zaruriy mahsulotdan va qo`shimcha mahsulotdan iborat. Zaruriy mahsulot ishchi kuchini normal holatida saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo`lsa qo`shimcha mahsulot mulkdorlarga va tadbirkorlarga hamda davlatga tegishlidir.

Nazorat savollari :


1. Ehtiyojlar tizimi nimalardan iborat ?
2. Iqtisodiy resurslar tarkibini tushuntiring.
3. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat ?
4. Ishlab chiqarish jarayonini tushuntiring.
5. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntiring.

KO`RGAZMALI CHIZMALAR

1- ko`rgazma



3- ko`rgazma



ADABIYOTLAR

RAFBATLANTIRUVCHI ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. «O'zbekiston» nashriyoti. 1998 y.

2. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlohi va taraqqiyot yo'li. T. «O'zbekiston» nashriyoti 1992 y.
3. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston» nashriyoti 1999 y.
4. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. «O'zbekiston» nashriyoti 1995 y.
5. I.A.Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. «O'zbekiston» nashriyoti 1993 y.
6. I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asari. T. «O'zbekiston». 2009 y.

QONUNLAR, FARMONLAR, QARORLAR.

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. «O'zbekiston». nashriyoti 1992 y.
8. O'zbekiston Respublikasining Konuni. O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'rtisida. O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. T. «O'zbekiston» nashriyoti 1992-1996 y.

ASOSIY ADABIYOTLAR

9. A.Qodirov. Iqtisodiyot nazariyasi. T.1995 y.
10. S.Gulomov. M.SHarifxujayev. «Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti» Darslik. T. «O'qituvchi» nashriyoti - 2000 y.
11. D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi.2002 y.
12. A.Razzokov, SH.Toshmatov, N.Urmonov. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi». Darslik. Toshkent. «Moliya» nashriyoti- 2002 y.
13. A.Ulmasov, M. SHarifxujayev «Iqtisodiyot nazariyasi». Darslik T. «Mehnat» nashriyoti 1995 y.
14. SH.SHodmonov, T.Juraev. Iqtisodiyot nazariyasi. T. O'quv qullanma «mehnat»nashriyoti. 2000 y.
15. SH.SHodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi.T.2002 y.
16. CHepurina M.N, Kiselevoy E.A. Kurs Ekonomicheskoy teorii (Uchebnik). Kirov.1999 g.
17. A.I.Dobrynina, L.S.Tarasevna. Ekonomicheskaya teoriya.Moskva 2000g.
18. Z.Zoyirov, N.Murodova, SH.Xasanov. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv-uslubliy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi FA «FAN» nashriyoti- 2004 y.
19. K.YU.Umarov va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma T. «Universitet» nashriyoti. – 2002 y.
20. SH.SHodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. T.2005 y.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR.

21. YO.Abdullaev, F.Karimov «Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari». O'quv qo'llanma T. «Mehnat» nashriyoti 2000 y
22. A.Ulmasov. «Iqtisodiyot asoslari». O'quv qo'llanma T. «Mehnat» nashriyoti 1997 y.
23. YO.Abdullaev. Bozor iqtisodiyoti asoslari. O'quv qo'llanma T. «Mehnat» nashriyoti- 1997 y.
24. YUusupov YU.B.Stanovlenie i razvitie ekonomicheskoy nauki. T. 1999 g.
25. N.S.Gregoriy, Mank'yu. Printsipy ekonomiki. Moskva. 1999 g.
26. Robert Pindayx. Daniel'. Rubinfel'd. Mikroiqtisod. O'quv qo'llanma T. «SHark» nashriyoti- 2002 y.
27. O'zbekiston: 13 yil Mustaqil taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma T. «O'qituvchi»nashriyoti - 2004 y.

INTERNET SAYTLARI

<http://www.cer.uz>.
<http://www.uzland.uz>.
<http://www.imf.org>.
<http://www.mircin.ru>.
<http://www.nalog.ru>
<http://www.soliq.uz>